



## PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARINING INNOVATSION FAOLIYATGA MOSLASHUVIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING AHAMIYATI

---

*Nuritdinova MahliyoXon Xoshimovna*

*Quva Abu Ali ibn Sino nomdagi jamoat salomatligi texnikumi uslubchisi*

*Mo'minova Mashxura Sul-tonmurod qizi*

*“Jamiyat sog'lig'innii saqlash va tibbiy statistika” moduli o'qituvchisi*

*Abduhalilova Mohigul Qobiljon qizi*

*Akusherlik va ginekologiya moduli o'qituvchilari*

*Quva Abu Ali ibn Sino nomdagi jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya:** Raqamli texnologiyalar va ular bilan ishlash. Raqamli jamiyat konsepsiyasi, shakllanish jarayoni va muammolari. Axborot madaniyati va axborot jamiyati

**Kalit so'zlar:** Raqamli jamiyat, bilimlar jamiyati, axborot jamiyati, raqamli kompetentsiya, raqamli vakolat

Bugungi zamonda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va ijtimoiy sohada odamlarga katta qulaylik yaratadi. Raqamli yoki axborot jamiyati bu insonlarning aksariyati ma'lumotni ishlab chiqarish, saralash, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanadigan jamiyat, uning tag zahirida eng yuqori vosita – bilimdir.

Axborotlashtirishning maqsadi-mehnat unumdorigini oshirish va mehnat sharoitlarini yengillashtirish orqali odamlarning hayot sifatini yaxshilashga intilish. Axborot jamiyatining rivojlanishi quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

1. Kompyuterlarning mavjudligi
2. Kompyuter tarmoqlari va ularning rivojlanish darajasi
3. Axborot madaniyati (axborot texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalar) va unga egalik darajasi

Global axborot makonini yaratish:

- odamlarning samarali axborot bilan o'zaro ta'siri;
- ularning jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari;
- ularning axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish



-elektron demokratiya, axborot iqtisodiyoti, elektron hukumat, raqamli bozorlar, electron ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish

Raqamli jamiyat haqida o'ylashda birinchi navbatda axborot jamiyatini hisobga olishimiz kerak. Bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Axborot jamiyati deganda, axborotni yaratish, tarqatish, ulardan foydalanish va manipulyatsiya siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ishlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyatlar tushuniladi. Biz "raqamli fuqaro"-bu Internet va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha ko'nikma va bilimlarni rivojlantiruvchi shaxs, raqamli texnologiyalar va internetdan jamiyat va siyosatga aralashish va ishtirok etish uchun tegishli va mas'uliyatli usullardan foydalaniladi. Raqamli fuqarolikning ushbu ta'rifini so'raganda, biz murakkablik darajasi haqida o'ylashimiz kerak.

Raqamli innovatsiyalar - bu imkoniyat – hukumatlar uchun, biznes uchun, jamiyatchilik uchun va ularning bir-biri bilan aloqasi uchun. Raqamli texnologiyalar institutsional munosabatlar va jamiyatning ish uslubini tubdan o'zgartiradigan, shaxslarning imkoniyatlarini kengaytiradigan va ularning qaror qabul qilish va ishlab chiqarishda ishtirok etish hamda ularga hissa qo'shish qobiliyatini o'zgartiradigan yangi vositalarni taqdim etadi.

Raqamli texnologiyalar afzalliklari:

- korrupsiyaga chek qo'yadi
- ishlab chiqarishda mehnat samaradorligini oshishi
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi
- ishlab chiqarishdagi hujjatlarning kamayishi
- yangi ish o'rinlarini yaratilishini
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi
- kambag'allikni yengish va ijtimoiy tengsizlikni yuqolishi

Raqamli texnologiyalar kamchiliklari:

- ma'lum bir davlat yoki mintaqaga joriy etish va amalda qo'llash uchun uzoq vaqt sarf qilinishi

- insonlarda xarakat tizimi kamayadi
- internet tezligi va sfati jixatidan tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik hayotimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularni tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singaari kabi raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmqda. Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib



ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib hizmat qila oladi.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim

- yurtimizda internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishlariga zarur shart-sharoitlarni yaratish

- pedagogik kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish maqsadida kerakli sharoitlar yaratish

- o'qitish jarayonini tashkil etishda o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan rivojlantirish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jhozlangan o'quv xonalar, laboratoriyalar, simulyatsion xonalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish.

- ta'lim jarayonida didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D pirenlerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchi va talabalar uchun loyihalar, ilmiy izlanishlar va moshqalarni muhokama qilish uchun veb saytlar ishlab chiqish lozim.

Shundagina, raqamli texnologiyalardan foydalanib, ta'lim sifatini tushirmagan holda talabalarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Xulosa qilib aytganda bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi. O'quv xonalari zamonaviy kompyuterlar, planshetlar, smart-doskalar, iPad va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jhozlangan. Dunyoning rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi, bizning yurtimizda raqamli texnologiyalarning eng so'ngi avlodlaridan; televizor, kompyuter, planshet, smartfon va smart soatlar.

Bundan tashqari, raqamli texnologiya o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv xolda amalga oshiradi. Doskalar va darsliklar davri o'tdi; zamonaviy o'quv xonalari raqamli qurilmalar, interaktiv doskalar va o'quvchilarga virtual munozaralar, viktorinalar va o'yinlarda qatnashish imkonini beruvchi onlayn platformalar bilan jhozlangan. Ushbu vositalar nafaqat o'rganishni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarga ma'lumotni yaxshiroq saqlashga yordam beradi va ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi.

Ta'limda raqamli texnologiyaning yana bir muhim jihati hamkorlik va muloqotni kuchaytirish qobiliyatidir. Google Classroom, Microsoft Teams va Zoom kabi onlayn platformalar yordamida o'quvchilar jismoniy joylashuvidan qat'i nazar,



loyihalar ustida hamkorlik qilishlari, hujjatlarni almashishlari hamda bir-birlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu o'quvchilarga hamkorlikda samarali ishlash, fikr almashish va bir-biridan o'rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli ta'lim texnologiyani biz zamonaviy ta'limdagi roli muhim va keng qamrovli ekanligiga ishonamiz. Bu bizning o'qitish va o'rganish uslubimizni o'zgartirish, ta'limni yanada qulayroq, qiziqarli va interaktiv qilish imkoniyatiga ega. Biroq, ta'limda raqamli texnologiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish muhim, masalan, raqamli tafovut va chalg'itish ehtimoli. Shunday qilib, biz texnologiyani o'rganishni yaxshilash va o'quvchilarni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun samarali qo'llanilishini ta'minlashimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.

2. Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova. (2022). INDIVIDUALIZATION OF PROFESSIONAL EDUCATION PROCESS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. World Bulletin of Social Sciences, 8, 65-67. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/721>

3. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142-156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-02-23>

4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008

5. "IQTISOD MOLIYA", 2009. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T. : IQTISOD MOLIYA, 2011. Hikmatnoma. //To'plovchi N. Eshonqulov. Toshkent: Cho'lpon, 1992